

[Print](#) [1] | [PDF](#) [2]

Davlat Ekologiya qo'mitasi to'g'risida nizom [3]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2017-yil 23-maydagi

310-sonli qaroriga

ilova

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni

muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risida

NIZOM

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining (keyingi o'rinlarda Davlat ekologiya qo'mitasi deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va javobgarligini, shuningdek faoliyatini tashkil etishni belgilaydi.

2. Davlat ekologiya qo'mitasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va u o'z faoliyati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

3. Davlat ekologiya qo'mitasining markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari, shuningdek qo'mitaga mansub tashkilotlar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining yagona tizimini tashkil etadi.

4. Davlat ekologiya qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Davlat ekologiya qo'mitasi o'z faoliyatini boshqa davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, huquqni himoya qilish organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Davlat ekologiya qo'mitasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan va normativ-huquqiy xarakterga ega bo'lgan qarorlari, mulkchilik shakllari va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy.

7. Davlat ekologiya qo'mitasi atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq xalqaro va mintaqaviy masalalarni hal etishda o'z vakolatlari doirasida tegishli xorijiy mamlakatlar hamda tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

8. Davlat ekologiya qo'mitasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlarning ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi faoliyatlarida ular bajarishlari lozim bo'lgan ishlarni o'z zimmasiga olmaydi.

9. Davlat ekologiya qo'mitasi markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni

muhofaza qilish boshqarmalari, shuningdek qo'mitaga mansub tashkilotlarni saqlab turish va moddiy-texnik ta'minlash, shu jumladan Davlat ekologiya qo'mitasi tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

10. Davlat ekologiya qo'mitasi markaziy apparati, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari (keyingi o'rinlarda hududiy tashkilotlar deb ataladi), Davlat ekologiya qo'mitasiga mansub tashkilotlar yuridik shaxslar hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan o'z nomi yozilgan muhr va blankalarga, shuningdek bank hisob varaqlariga ega bo'ladi.

11. Davlat ekologiya qo'mitasi markaziy apparati quyidagi manzilda joylashgan: Toshkent shahri, Toy-tepa ko'chasi, 2^a-uy.

II-bob. Davlat ekologiya qo'mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari

12. Davlat ekologiya qo'mitasi quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvi;

atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida obyektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog'lomlashtirilishini ta'minlash;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida ta'sirchan tizimni tashkil etish;

yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat ekologik nazoratni o'rnatish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlash;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini, shuningdek, yovvoyi hayvonlarni, yovvoyi o'simliklarni ko'paytirish va saqlash pitomniklarini, zoologiya va botanika kolleksiyalarining davlat hisobini yuritish;

ekologik tarbiya, targ'ibot va ta'limni, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;

atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish;

ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalarida jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mustahkam hamkorlikni, qulay atrof-muhitga bo'lgan fuqarolar huquqini ta'minlash.

13. Davlat ekologiya qo'mitasi o'ziga yuklangan vazifalardan kelib chiqib quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash yuzasidan davlat boshqaruvi sohasida:

hayvonot va o'simlik dunyosidan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash, atmosfera havosi, yer osti boyliklarini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish, shuningdek chiqindilar bilan

bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradi;

atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklashni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlaridan keng foydalangan holda tabiatni muhofaza qilish faoliyatida davlat boshqaruvini amalga oshiradi;

resurslarni tejaydigan, kam chiqitli va chiqitsiz innovatsion texnologiyalarni hamma yerda keng va miqyosli joriy etishni rag'batlantirish, shuningdek aholining ekologik xavfsizligini ta'minlaydigan xo'jalik faoliyatining atrof-muhitga noxush ta'sirini kamaytirish va uning oldini olishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, xavfsiz mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi;

tabiatni muhofaza qilish faoliyatini metrologik jihatdan ta'minlash borasida ish olib boradi, atrof-muhit obyektlarining ifloslanishini nazorat qilish bo'yicha metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

mahsulotlar, xizmatlar va chiqindilar, texnologik jarayonlar bo'yicha sertifikatlashni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasiga asosan, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish uchun yillik kvotalarni tasdiqlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek boshqa tashkilotlarning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish borasidagi ishlariga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

b) atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida obyektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog'lomlashtirilishini ta'minlash sohasida:

atrof-muhit holatini yaxshilashga yo'naltirilgan loyihalar bo'yicha takliflarni mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning har yilgi va uzoq muddatli dasturlariga kiritish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va mahalliy ijroiya hokimiyati organlariga kiritadi;

atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yuzasidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish dasturlarini kelishadi;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish bo'yicha rejalarni ishlab chiqish tartibini belgilaydi;

qonunchilikda belgilangan tartibda aholini atrof-muhit holati va uni sog'lomlashtirish bo'yicha ko'rilayotgan choralarga doir ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

«Toza hudud» davlat unitar korxonalari va shaharlardagi maxsus sanitariya jihatidan tozalash tashkilotlari faoliyatida chiqindi yig'ish punktlarini ishga tushirish, chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqish, poligonlarni boshqarish, chiqindilarni utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish, realizatsiya qilish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

chiqindilarni yig'ish, saralash, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilish tizimini samarali tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni tashkillashtiradi;

v) chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida ta'sirchan tizimni tashkil etish sohasida:

davlat va xo'jalik organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shahar va tumanlar obodonlashtirish boshqarmalaridagi maxsus sanitariya jihatidan tozalash korxonalari, «Toza hudud», «Maxsustrans» davlat unitar korxonalari faoliyati yuzasidan, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida qonunchilikka rioya etishi bo'yicha davlat nazoratini ta'minlaydi;

chiqindilarni yig'ish punktlarini tashkil etish, ularni o'z vaqtida olib chiqish, ruxsat etilmagan chiqindixonalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, chiqindi poligonlarini boshqarish, ularni utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilishni belgilangan tartibda nazoratga olishni tashkil etadi;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish, ularni ko'mish va utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrini yuritish bilan bog'liq ma'lumotlarni to'playdi hamda tahlil qiladi;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishida yordam ko'rsatadi;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda joylardagi ruxsat etilmagan chiqindixonalarni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ularni amalga oshirishni tashkillashtiradi;

qattiq maishiy chiqindilar saqlanadigan hududlardagi tuproqni ifloslantiruvchi manbalarning monitoringini olib boradi;

g) yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratni o'rnatish sohasida:

1) ekologik tizimlar, tabiiy genofond, biologik muvozanatning, shuningdek atmosfera havosini, yer usti va yer osti suvlarini, tuproqni ifloslantiruvchi manbalarning, o'simlik dunyosi (shu jumladan, o'rmonlar) hayvonot dunyosi, ularning yashash muhitining va biologik suv obyektlarining holati yuzasidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

2) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining bajarilishi yuzasidan davlat nazoratini, shu jumladan quyidagilarni amalga oshiradi:

ifloslantiruvchi moddalarni atrof-muhitga chiqarib tashlashning va oqizishning, chiqindilar hosil bo'lishi va joylashtirilishining belgilangan ekologik normativlariga, shuningdek bunday ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlashni, oqizishni va chiqindilarni belgilangan normativlargacha kamaytirishga doir kelishilgan tadbirlar;

yangi va qayta tashkil etilgan korxonalar hamda boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ishga tushirishda ekologik xavfsizlik talablari;

yer qa'rini geologik o'rganish, foydali qazilmalarni qazib olish, portlatish ishlarini o'tkazish, qazilma chiqindixonalari, terrikonlar, qoldiq jinlar uyumi va chiqindixonalarni joylashtirish hamda ulardan foydalanish chog'ida atrof-muhitni ifloslanishdan, bulg'anishdan va qashshoqlashishdan muhofaza etish hamda tabiiy resurslardan kompleks foydalanish;

o'simliklarni himoya qilish vositalarini, ularning o'sishini tezlashtiruvchi moddalarni, mineral o'g'itlarni, boshqa kimyoviy moddalar va preparatlarni tashish, saqlash va qo'llash chog'ida atrof-muhitni muhofaza qilish;

keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish qoidalari;

ovchilik va baliqchilik, baliq zaxiralarini muhofaza etish, ulardan foydalanish hamda ularni qayta

tiklash, baliqchilikni rag'batlantirish qoidalari;

suvni muhofaza qilish obyektlarini, suv xo'jaligi tizimlari, suv omborlari va boshqa gidrotexnika inshootlarini ishlatish qoidalari;

atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan kompleks foydalanish, ularni saqlash va qayta tiklash dasturlari va rejalarini ishlab chiqilishi va bajarilishini amalga oshirish;

suv resurslaridan foydalanish, suvdan foydalanishning belgilangan me'yorlari, qoidalari va tartibotiga rioya etish, yer usti va yer osti suvlarini ifloslanish, bulg'anish va qurib qolishidan muhofaza qilish, shuningdek suv obyektlarining qirg'oq bo'ylarida (zonalarida) suvni muhofaza qilish chora-tadbirlarini bajarish;

yer uchastkalari egalari va yerdan foydalanuvchilar tomonidan tuproqni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish;

vaqtincha foydalanishga berilib, qurilish, foydali qazilmalar qazib olish va boshqa ta'sirlar natijasida buzilgan yerlarni foydalanish uchun yaroqli holga keltirish;

o'rmon resurslari, qimmatli tabiiy landshaftlar, shuningdek o'rmon o'simliklari suvini muhofaza qilish, suvni boshqarish, ekin maydonlarini himoya qilish va boshqa himoya vazifalari saqlanishini ta'minlash;

3) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar bilan birgalikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda, ifloslangan va boshqa zararli ta'sirlarga uchragan atrof-muhitning holati, tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risidagi yagona respublika ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va yuritadi;

4) atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlash hamda oqizishning yo'l qo'yiladigan normativlari va chiqindilarni joylashtirish limitlarini tasdiqlaydi;

5) O'zbekiston Respublikasi hududida atrof-muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda kompensatsiya to'lovlarini undiradi;

6) davlat dasturlari, konsepsiyalari, ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarining loyihalari; barcha turdagi qurilishlarga mo'ljallangan yer uchastkalarini ajratish materiallari; loyihaoldi va loyiha hujjatlari; tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq, xo'jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi texnik reglamentlar, ekologik normativlar loyihalari; texnika, texnologiyalarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlar; atrof tabiiy muhit holati va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlar; keyinchalik ularga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik vaziyat va ekologik ofat zonalarini maqomini berish maqsadida o'tkazilgan hududlarni kompleks tekshirish materiallari; shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari; maxsus huquqiy rejimli obyektlarni davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazadi;

7) belgilangan tartibda:

tabiatdan, yer osti boyliklaridan foydalanish maqsadida, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ruxsatnoma xususiyatiga ega hujjatlar;

chiqindilarni saqlash va ko'mish maqsadida yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalanish uchun yer qa'ridan foydalanish huquqiga litsenziyalar;

davlat ekologik ekspertisasi xulosalari;

o'z vakolatlari doirasida xavfli yuklar tranzitiga xulosalar beradi;

8) yangi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ularga nom berish va ularni qayta nomlash bo'yicha taklif kiritadi;

d) ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlash sohasida:

atrof-muhitga ta'sir omillarini hisobga olish, uning holatini tahlil qilish, baholash, atrof-muhit holatini prognoz qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun davlat hamda idoraviy nazorat sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

atrof tabiiy muhit davlat monitoringini amalga oshiradi va atrof tabiiy muhit monitoringi sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

yangi (qayta qurilgan) obyektlarni, shu jumladan tabiatni muhofaza qilish obyektlari va inshootlarini qabul qilib olish hamda ishga tushirish bo'yicha davlat komissiyalari ishida, shuningdek barcha turdagi qurilish uchun yer ajratishga doir materiallarni kelishishda qatnashadi;

qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobini yuritadi va uning nashr etilishini ta'minlaydi;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida dasturlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, ijtimoiy sheriklikni kengaytiradi, atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatida jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishga metodik yordam beradi va ko'maklashadi;

ekologik nazorat sohasida boshqa maxsus vakolatli organlar bilan birgalikda ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlarini maxsus tayyorlash tizimini tashkil etadi;

davlat boshqaruvi organlari bilan birgalikda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni muhofaza qilishni tartibga solish sohasida normativ hamda metrologik ta'minlash, standartlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etadi;

ilmiy tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari mutaxassislarini jalb etgan holda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holatini modellashtirish va prognoz qilishni rivojlantirish bo'yicha ishlar olib boradi;

e) ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini, shuningdek yovvoyi hayvonlarni, yovvoyi o'simliklarni ko'paytirish va saqlash pitomniklarini, zoologiya va botanika kolleksiyalarining davlat hisobini yuritish sohasida:

yovvoyi hayvonlar va yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni ko'paytirish va ularni saqlash bo'yicha pitomniklarning, shuningdek zoologiya va botanika kolleksiyalarining davlat hisobini amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, shuningdek boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ifloslantiruvchi manbalarni va ularning atrof-muhitga ko'rsatadigan zararli ta'sirining (jismoniy ta'sirdan tashqari) hisobini amalga oshiradi;

tabiatdan foydalanuvchilar (tabiatdan maxsus foydalanish) tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar, chiqindilar chiqarib tashlash va oqizish hamda boshqa zararli ta'sirlarning (jismoniy ta'sirdan tashqari) dastlabki hisobini yuritishni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishga doir davlat statistika hisobotlari ishonchligiga rioya etishni amalga oshiradi;

o'simlik va hayvonot dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, chiqindilar ko'milgan va utilizatsiya qilingan joylarning davlat kadastrlari yuritilishini amalga oshiradi;

j) ekologik tarbiya, targ'ibot va ta'limni, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini

oshirishni tashkil etish sohasida:

maxsus vakolatli davlat organlari bilan birgalikda ekologik tarbiya va ta'lim tizimini tashkil etadi hamda rivojlantiradi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shu jumladan ekologik xavfsizlikni ta'minlash va biologik xilma-xillikni saqlab qolish sohasida bilimlarni targ'ib qilish ishlarini olib borishni ta'minlaydi;

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlaydi, Davlat ekologiya qo'mitasi rahbarlari va mutaxassislarini attestatsiyadan o'tkazadi;

maxsus vakolatli davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarini jalb qilgan holda, aholining atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish masalalari borasidagi xabardorligini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi;

z) atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish sohasida:

qonun buzilishlar profilaktikasi bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktikani amalga oshiradi, shuningdek mazkur huquqbuzarliklar aniqlaydi, bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni va ularning oqibatlarini bartaraf etadi;

atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning hisobini yuritadi va mazkur ma'lumotlar tahlilini amalga oshiradi;

huquqbuzarliklar profilaktikasida bevosita ishtirok etuvchi va uni amalga oshiruvchi boshqa organ hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi;

i) ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalarida jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mustahkam hamkorlikni, qulay atrof-muhitga bo'lgan fuqarolar huquqini ta'minlash sohasida:

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalq bilan muloqot mexanizmlarini amaliyotga samarali tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

Davlat ekologiya qo'mitasi vakolatlariga tegishli masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi;

aholi salomatligi yo'lida qulay sharoitlar yaratishga, ekologik muvozanatni saqlashga hamda mamlakatning samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ko'maklashadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarga axborot va maslahatlar beradi;

keng jamoatchilik hamda tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda tabiatni muhofaza qilish dasturlari va tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkillashtiradi;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida muhim vazifalarning amalga oshirilishi haqida tadbirkorlik subyektlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarni keng xabardor qilib boradi.

Davlat ekologiya qo'mitasi qonunchilikka muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

III-bob. Davlat ekologiya qo'mitasining huquqlari va javobgarligi

14. Davlat ekologiya qo'mitasi yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Davlat ekologiya qo'mitasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek boshqa hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda kiritish;

zarur holatlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash masalalari bo'yicha hisobotlarini ko'rib chiqish haqidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan Davlat ekologiya qo'mitasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun belgilangan tartibda axborotlarni so'rash va olish;

Davlat ekologiya qo'mitasi vakolatlariga tegishli masalalar bo'yicha davlat statistika organlaridan zarur statistik ma'lumotlarni bepul olish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari bo'yicha jamoatchilik, konsultativ, ilmiy-texnik, va boshqa kengashlar, idoralararo ekspert komissiyalar tashkil etish, maxsus kengashlar chaqirish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishning uzoq muddatli dasturlarini, hududiy kompleks sxemalarini, qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish, shuningdek ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish uchun ilmiy-tadqiqot, loyihalash, konstruktorlik tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jalb etish;

tabiiy resurslarni ifloslantirish, unga shikast yetkazish, kamaytirish va ulardan nooqilona foydalanish natijasida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslardan zararni undirib olish to'g'risida da'volar qo'zg'ash, shuningdek undirilgan summani qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sarflash;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish to'g'risidagi takliflarini taqdim etish;

davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olmagan obyektlarga nisbatan moliyalash, kreditlash va boshqa moliyaviy operatsiyalarini to'xtatib turish (to'xtatish) to'g'risidagi taqdimnomalarni bank va boshqa kredit tashkilotlariga kiritish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlar faoliyatini favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga boshqa real tahdid yuzaga kelishining oldini olish munosabati bilan o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga cheklash, to'xtatib turish haqida qaror qabul qilish;

atrof-muhitga ahamiyatli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadigan yuridik shaxslar rahbarlaridan tasarrufidagi obyektlarda atrof tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarib tashlanishi (oqizilishi)ni uzluksiz nazorat qilish vositalari bilan jihozlangan punkt (post)lar barpo etish, bunday punkt (post)larning ishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish, bunday punkt (post)lardan olingan ma'lumotlarni tizimli ravishda taqdim etishni talab qilish;

ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida qonun hujjatlarida ko'rsatilgan qonun talablari buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatmalar berish;

o'z vakolati doirasida belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish, mansabdor shaxslar va fuqarolarga jarimalar solish, shuningdek ushbu ma'muriy huquqbuzarliklar oqibatida tabiiy resurslar va atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish;

atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlar faoliyatini cheklash, to'xtatib turish, to'xtatish va (yoki) qayta ixtisoslashtirish to'g'risida, shuningdek atrof-muhitga, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash haqida sudga ariza bilan murojaat qilish;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish jamg'armasi mablag'larini belgilangan tartibda shakllantirish va ulardan foydalanish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanish sohasidagi masalalar mavzusida noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

tabiatdan foydalanishning tegishli mintaqaviy, xorijiy va xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

15. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda Davlat ekologiya qo'mitasi raisi tomonidan ro'yxati tasdiqlangan Davlat ekologiya qo'mitasi tizimi alohida toifasi xodimlariga qonun hujjatlarida asosida zimmlariga yuklangan atrof-muhit, tabiiy resurslarni muhofaza qilish maqsadida tabel o'q otar qurolni olib yurish va saqlashga ruxsat beriladi.

16. Davlat ekologiya qo'mitasi tizimidagi mansabdor shaxslar davlat ekologik nazorati sohasida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, davlat va boshqa ekologik dasturlarni amalga oshirish borasida tekshiruv o'tkazish huquqiga ega.

17. Davlat ekologiya qo'mitasi va uning mansabdor shaxslari o'zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javob beradilar.

IV-bob. Davlat ekologiya qo'mitasining faoliyatini tashkil etish

18. Davlat ekologiya qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan rais boshchilik qiladi.

Davlat ekologiya qo'mitasi raisining O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan ikki nafar o'rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi.

19. Davlat ekologiya qo'mitasining raisi:

Davlat ekologiya qo'mitasi tizimi faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi hamda ularga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

o'z o'rinbosarlarining vakolatlarini belgilaydi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, Davlat ekologiya qo'mitasi tizimining boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini, Davlat ekologiya qo'mitasi faoliyatining ayrim uchastkalari, hududiy organlar va mansub tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish uchun o'z o'rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslarning javobgarligi darajasini belgilaydi;

Davlat ekologiya qo'mitasi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari nizomlarini, hududiy organlar

nizomlarini, Davlat ekologiya qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar va bo'linmalarining nizomlari, ustavlari va ularning tuzilmalarini tasdiqlaydi;

Davlat ekologiya qo'mitasi markaziy apparatining xarajatlari smetasi va shtatlar jadvalini xodimlarning belgilangan soni doirasida tasdiqlaydi;

Davlat ekologiya qo'mitasining markaziy apparati tuzilmasiga, shuningdek hududiy organlar, mansub tashkilotlar tuzilmasiga xodimlarning belgilangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda Davlat ekologiya qo'mitasi markaziy apparati xodimlarini, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari va mansub tashkilotlar rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

Davlat ekologiya qo'mitasi tizimi xodimlari tomonidan bajarish uchun majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi, buyruqlar chiqaradi, shuningdek topshiriqlar beradi;

Davlat ekologiya qo'mitasi tizimidagi xodimlarni rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish haqidagi masalalarni hal etadi, Davlat ekologiya qo'mitasining alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarini O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari va davlat mukofotlari bilan taqdirlashga taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasining davlat organlari va boshqa tashkilotlarida, shuningdek davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar vakillari ishtirokida o'tkaziladigan rasmiy tadbirlarda Davlat ekologiya qo'mitasi nomidan vakillik qiladi;

Davlat ekologiyasi qo'mitasi Hay'ati majlislariga raislik qiladi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Davlat ekologiya qo'mitasi raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari boshliqlari va ularning nazorat qilish yo'nalishi bo'yicha o'rinbosarlari, o'z navbatida, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari hisoblanadi.

21. Davlat ekologiya qo'mitasi huzurida ekologik nazoratni tashkil etish maqsadida davlat ekologik nazorati sohasida maxsus vakolatli davlat organlari vakillaridan iborat Idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etiladi. Idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengashning faoliyati tartibi davlat ekologik nazorati sohasidagi boshqa maxsus vakolatli davlat organlari bilan kelishgan holda Davlat ekologiya qo'mitasig Hay'ati tomonidan tasdiqlanadigan reglament bilan belgilanadi.

22. Davlat ekologiya qo'mitasi tizimi xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda formal kiyim-bosh bilan ta'minlanadi.

23. Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi va rais o'rinbosari - Davlat ekologiya qo'mitasi raisi bilan kelishgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan;

viloyatlar va Toshkent shahri Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari - viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari taqdimnomasiga binoan Davlat ekologiya qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Viloyatlar va Toshkent shahri Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari boshliqlarini lavozimga tayinlash va ozod qilishning qonunchilikda belgilangan tartibdagi jarayoni yakuniga yetgunga qadar, ko'rsatib o'tilgan tarkibiy bo'linmalar faoliyatini ta'minlash maqsadida, Davlat ekologiya qo'mitasi raisi boshliqning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlash huquqiga ega.

24. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisining, viloyatlar va Toshkent shahri Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari boshliqlarining bir nafar o'rinbosari bo'ladi.

25. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari boshliqlari o'zlariga yuklangan vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlaydilar, tegishli hududlarda o'zlariga bo'ysunuvchi bo'linmalar faoliyatini tashkil etadilar, muvofiqlashtiradilar va nazorat qiladilar.

26. Davlat ekologiya qo'mitasida Davlat ekologiya qo'mitasi raisi, uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi raisi hamda Davlat ekologiya qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi uning tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi.

Hay'atning shaxsiy tarkibi va soni Davlat ekologiya qo'mitasi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

27. Hay'atda:

ushbu Nizomda nazarda tutilgan Davlat ekologiya qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

Davlat ekologiya qo'mitasi nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlarga kadrlar tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

hududiy organlar va mansub tashkilotlar rahbarlarining yarim yillik yakunlari bo'yicha hisobotlarini eshitis;

qonunchilikda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ijro intizomini mustahkamlash, vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun Davlat ekologiya qo'mitasi organlari rahbarlari va xodimlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi.

Hay'at Davlat ekologiya qo'mitasi vakolatiga tegishli bo'lgan boshqa masalalarni ham ko'rib chiqishi mumkin.

28. Hay'at majlisiga Davlat ekologiya qo'mitasi vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlarning rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at, agar majlisda uning tarkibining yarmidan ko'pi qatnashsa, huquqiy vakolatli hisoblanadi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

29. Hay'at qarorlari Davlat ekologiya qo'mitasining qarorlari va raisning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Rais va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda rais yuzaga kelgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli Kompleksi rahbariga axborot bergan holda, mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikrini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli Kompleks rahbariga ma'lum qilishlari mumkin.

Hay'at faoliyati tartibi hay'atning qarori bilan tasdiqlanadigan reglament bilan belgilanadi.

V-bob. Moddiy rag'batlantirish me'yorlari

30. Davlat ekologiya qo'mitasi xodimlarini moddiy rag'batlantirish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

31. Davlat ekologiya qo'mitasi xodimlariga to'lanadigan ish haqi qonunchilikda ko'zda tutilgan lavozim oylik maoshi, mukofotlar, qo'shimcha va ustama haqlar, shuningdek rag'batlantiruvchi to'lovlardan iborat bo'ladi.

32. Davlat ekologiya qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlangan xodimlarning uzoq muddat xizmat qilgani uchun ish haqiga ustama haq to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, qo'mita xodimlariga uzoq muddat xizmat qilgani uchun lavozim oylik maoshiga ustama haq to'lanadi.

33. Davlat ekologiya qo'mitasi xodimlariga to'lanadigan ish haqi va xodimlarni moddiy rag'batlantirishlar mehnatga haq to'lash jamg'armalari mablag'lari, byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi, shuningdek byudjetdan ajratiladigan mablag' hisobiga shakllantiriladi hamda byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi orqali amalga oshiriladi.

VI-bob. Yakunlovchi qoida

34. Davlat ekologiya qo'mitasini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2014-01-29

Source URL: <http://uznature.uz/uz/node/721>

Links

[1] <http://uznature.uz/print/721>

[2] <http://uznature.uz/printpdf/721>

[3] <http://uznature.uz/uz/node/721>